YUNUSOV AMANULLA HAMIDULLAEVICH

Elektron manzil: info**@api.uz**
Telefon: **244-32-87 , 244-14-54**
Qabul kunlari: **Juma - 15:00-18:00**

1959 yil Toshkent shahrida tug‘ilgan.

Millati - o‘zbek.

Ma'lumoti oliy. 1980 yilda Toshkent xalq xo‘jaligi institutini tamomlagan.

Mutaxassisligi iqtisodchi.

O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasining a'zosi.

1980 yildan Toshkent "Kompressor" zavodi muhandisi;

1989 yildan "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi muhandis-iqtisodchisi, rejalashtirish bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari, iqtisodiyot va rivojlanish istiqbollari bo‘limi boshlig‘i;

1998 yildan "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh direktorining moliyaviy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari;

2005 yildan "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh direktori;

2013 yildan O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi bosh direktori.

Bosh direktor Agentlik faoliyatiga yakkaboshchilik asosida rahbarlik qiladi va Agentlikka yuklangan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi.

- Agentlikning markaziy apparati xodimlarini va hududiy boshqarmalar rahbarlarini belgilangan tartibda lavozimga tayinlaydi va lavozimdan ozod qiladi;
- Bosh direktorning o’rinbosari vazifalarni taqsimlaydi;
- Agentlikning mansabdor shaxslari, hududiy boshqarmalar, Agentlik tasarrufidagi tashkilotlar tomonidan bajarilishi majburiy bo’lgan buyruqlar chiqaradi va ko’rsatmalar beradi, shuningdek ularning bajarilishini belgilangan tartibda nazorat qiladi;
- O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan xodimlarning soni va mehnatga haqto’lash fondi doirasida Agentlik markaziy apparatining tuzilmasi va shtat jadvalini, matbuot va axborot hududiy boshqarmalari xodimlari sonini, shuningdek mablag' ajratishning tegishli davri uchun davlat byudjetida tasdiqlangan doirada ularning ta'minoti xarajatlari smetasini tasdiqlaydi;
- Agentlikning tarkibiy va hududiy boshqarmalari to’g'risidagi nizomlarni, Agentlikka qarashli tashkilotlarning nizomlarini belgilangan tartibda tasdiqlaydi.

Bosh direktor qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.